



O'ZBEK TILSHUNOSLIK TERMINOLOGIYASIDA MORFEMA TERMINI HAQIDA

Qurbonova Yulduz

GulDU Filologiya fakulteti, Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5797246>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10 - dekabr 2021

Ma'qullandi: 15 - dekabr 2021

Chop etildi: 20 - dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

o'zak, qo'shimcha, asos, negiz, morfema, asos morfema, affiks morfema va b.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligi terminologiyasida morfema terminining shakllanishi va taraqqiyoti hamda hozirgi qo'llanish masalalarida fikr yuritiladi. Hozirgi tilshunoslik asarlarida tushuncha mohiyatini to'liq ifodalayotganiga baho beriladi.

Morfemika – tilshunoslikning alohida va mustaqil sohasi. Bu sohada tilning o'ziga xos sathlaridan biri hodisalari o'rganiladi. Dastlab morfemika tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida ajratilmagan. Bu sohaga o'tgan asrning ikkinchi yarmidan keyin e'tibor berila boshlagan. Unga qadar darslik va qo'llanmalarda morfemikaga oid tushunchalar "So'z tarkibi" nomi bilan morfologiya mundarijasida berilar edi. "Morfema" termini qo'llanmagan¹. "O'zak", "qo'shimcha", "asos", "negiz"² tushunchalari haqidagi ma'lumotlar "So'z tarkibi" mavzusining asosiy mazmunini tashkil etgan.

Ushbu maqola morfema termini tilshunoslikka oid adabiyotlarda turlicha qo'llanilayotgani xususida bo'lib, unga o'z munosabatimizni bildirishdan iborat.

Morfemika til fanining bo'limlaridan biri sifatida morfemalarning turini, ularning har biriga xos lisoniy xususiyatlarni o'rganadi. Masalan, **ishchilarimizdan** so'zining morfem qurilishi **-ish, -chi, -lar, -imiz, -dan** singari unsurlardan tashkil topgan (ish+chi+lar+imiz+dan).

Morfemika so'z tarkibining ana shunday qismlarini o'rganadi. Ularning har biri o'ziga xos lisoniy ma'noga ega. Morfemalarni ulardan kichik yana boshqa ma'noli qismlarga ajratib bo'lmaydi. Shu

¹Berdialiyev A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfemika. So'z yasalishi. Morfonologiya. – Xujand, 2015. – B.6.

²Ermatov I. O'zbek tilshunoslik terminologiyasi. Monografiya. – T.: Turon-iqbol, 2021. – B.44.



bois **morfema** tilning eng kichik ma'noli birligi sanaladi³.

Umumiy tilshunoslik fanidan bizga ma'lumki, morfema tushunchasi fanga Qozon tilshunoslik maktabining asoschisi I.A.Boduen de Kurtene tomonidan kiritilgan.

Morfemika sohasining asosiy lisoniy birligi, demak, morfema tushunchasidir. Termin grekcha "morphe" so'zidan olingan, "shakl" (forma) degan ma'noni bildiradi. Tilning ma'noli, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan eng kichik birligi. Asosiy xususiyatiga ko'ra, morfemalar ikki turga bo'linadi: 1) leksik morfema; 2) affiksial morfema. Masalan, ishchi so'zida ikki morfema bor: ish va chi. Ish – **leksik morfema**, chi – **affiksial morfema**⁴.

Shunday ekan morfema tilning ifoda planiga qarashli moddiy (ya'ni shakliy) birlikdir. Morfema tovush va tovushlardan tarkib topadi. Morfemalarning ayrimlari bir tovushga, boshqa ba'zi birlari esa ikki yoki uch tovushga teng kelishi mumkin. Masalan, tilimizdagi **yasha, osha, sana** so'zlari ikki morfemadan tuzilgan. Ularning asos tavsifidagi morfemalari yosh (+a – yasha), osh (+a – osha), son (son+a – sana) ikki (osh) va uch (yosh, son) tovushdan tarkib topgan; affiks xarakteridagi morfema esa, bir tovush (-a) dan iborat. Birlik (bir+lik), tengdosh (teng+dosh), qumloq (qum+loq) so'zlarining tarkibiga kiruvchi asos morfemalar ham, affiks morfemalar ham teng tovushli, ularni uchtdan tovush shakllantirgan⁵. Bu yerda **morfema** lingvistik termin sifatida qo'llangan va **asos**

morfema, affiks morfema kabi turlari haqida ham fikr bildirilgan.

Morfema termini, jumladan, R.Sayfullayeva va boshqalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanmasida esa "morfema nolug'aviy ma'no ifodalovchi eng kichik lisoniy birlik" sifatida qaraladi⁶. Bu o'quv qo'llanmada morfema termini quydagicha talqin etilgan. Funktsional yondashuvda so'zning nutqda voqelanish jarayonidagi roli, shuningdek, boshqa lisoniy sath birliklari voqelanishiga, ular umumiy ma'nolarining parchalanishiga qo'shgan "hissasi" tekshiriladi. Masalan, (odamcha) so'zida [odam] leksemasi (-cha) morfemasining "kichraytirish-kamsitish" ma'nosini (qizcha) so'zidagi "kichraytirish-erkalash" ma'nosidan farqlagan, morfologik sath birligi bo'lgan [-cha] morfemasining "kichraytirish" umumiy ma'nosini parchalab, uning birini ikkinchisidan ajratgan⁷. Bu misoldan tushunishimizcha -cha affiksi (affiks morfema emas) morfema deb nomlangan.

Qo'llanma mualliflari fikrini davom ettirib yozadilar. Morfemika so'zning nomustaqil tarkibiy qismi haqidagi ta'limot. Ma'lumki, o'zbek tilida, flektiv tillardagidan farqli o'laroq, o'zak mustaqil ma'no anglatish xususiyatiga ega. So'zning o'zakdan boshqa qismlari esa undan ayricha qo'llanmaydi va ma'no anglatmaydi. Shuning uchun ular morfema deyiladi. Masalan, (paxtakorlarga) so'zi (paxta), (-kor), (-lar), (-ga) qismlaridan iborat. Ajratilgan har bir tarkibiy qism bu so'z doirasida o'ziga xos elementar va semantik mavqega ega. Ular lisonda ana shunday

³Berdialiyev A. Ko'rsatilgan asar. – B.6.

⁴Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: Fan, 2013. – B.72.

⁵Berdialiyev A. Ko'rsatilgan asar. – B.7.

⁶Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqieva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q.

Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006. – B. 64.

⁷Sayfullayeva R. va boshqalar. Ko'rsatilgan asar. – B. 77.



ajralgan holda o'z "xonacha"larida guruh-guruh bo'lib yashaydi.

(Paxta-) va (-kor), (-lar), (-ga) qismlari o'zaro semantik va qo'llanish xususiyati jihatidan farqlanadi. [Paxta] birligi mustaqil lug'aviy ma'noga egaligi va bu ma'noni qolgan qismlarsiz ham anglata olish xususiyati bilan boshqa tarkibiy qismlardan ajralib turadi. Shuning uchun u leksema deyiladi. Boshqa qismlar esa ajralgan holda mavhum bo'lishi, leksemasiz mustaqil ma'no anglata olmasligi bilan xarakterlanadi. Leksema shakllanuvchanlik, morfema shakllantiruvchanlik belgisiga ega. Nomustaqillik tabiati va leksemaga shakl berish vazifasiga xoslanganligi ularni morfema deb atashga olib kelgan. Morfemaning nutqiy ko'rinishi qo'shimcha deyiladi⁸.

Yuqorida keltirilgan uch manbada morfema lingvistik terminiga uch xil yondashuv va uch xil nomlash ko'zga tashlanadi. R.Sayfullayeva bosh muallifligidagi o'quv qo'llanmada morfema termini faqat affiks maqomidagi

qo'shimchalarga nisbatan ishlatilgan. Paxtakorlarga so'zi tarkibidagi asos **paxta** leksema termini, **-kor**, **-lar**, **-ga** affikslariga nisbatan morfema termini ishlatilgan.

N.Mahkamov va I.Ermatovlarning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da esa, ishchi so'zida ikki morfema mavjudligi ko'rsatilgan holda **ish** – leksik morfema, **-chi** – affiks morfema termini bilan nomlangan.

Prof. A.Berdialiyevning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanmasida qumloq (qum+loq) so'zining tarkibi **qum** – asos morfema, **-loq** – affiks morfema terminlari bilan nomlangan.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, morfema tilning eng kichik ma'noli qismi bo'lib, u asos (leksik) morfema ham, affiks morfema ham bo'lishi mumkin ekan. Demak, morfema terminini befarq qo'llab bo'lmaydi, uni asos morfema, affiks morfema terminlari bilan ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda biz morfema terminini to'g'ri qo'llaymiz. Shu nom bilan morfema termini tushunch mohiyatini to'liq ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Berdialiyev A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfemika. So'z yasalishi. Morfonologiya. – Xujand, 2015. – 136 b.
2. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqieva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006. – 391 b.
3. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: Fan, 2013. – 144 b.
4. Ermatov I. O'zbek tilshunoslik terminologiyasi. Monografiya. – T.: Turon-iqbol, 2021. – 152 b.

⁸Sayfullayeva R. va boshqalar. Ko'rsatilgan asar. – B. 130.